

AHOLI SONI O'SISHI NA JOYLANISHINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Murodova D.S
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada aholi soni o'sishi va joylanishiga oid demografik tadqiqotlar, aholi siyosati, aholi haqidagi bilimlarning shakllanishi, aholining takror barpo bo'lishi jarayonlari, aholi soni dinamikasi va uning muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: aholi soni, aholi o'sishi, aholi joylanishi, aholi siyosati, migratsiya, tabiiy harakat, aholining takror barpo bo'lishi, demografik omillar, reproduktiv mayl.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ РОСТА И РАССЕЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ

Муродова Д.С
Преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация: В статье анализируются демографические исследования роста и распределения населения, демографическая политика, формирование знаний о населении, процессы обновления населения, демографическая динамика и ее проблемы.

Ключевые слова: население, рост населения, распределение населения, демографическая политика, миграция, естественное перемещение населения, обновление населения, демографические факторы, репродуктивные тенденции.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF RESEARCH OF POPULATION GROWTH AND SETTLEMENT

Murodova D.S.
Teacher of Karshi State University

Abstract: The article analyzes demographic studies on population growth and distribution, population policy, the formation of knowledge about the population, population regeneration processes, population dynamics and its problems.

Key words: population, population growth, population distribution, population policy, migration, natural movement, population renewal, demographic factors, reproductive tendency.

Dunyo aholisining o'sishi va ishlab chiqarish ko'lami barqaror bo'lmagan iste'mol shakllari bilan birgalikda sayyoramizning hayotni ta'minlash salohiyatiga tobora og'ir yukni qo'ymoqda. Bu o'zaro ta'sir jarayonlari atmosfera, yer, suv, energiya va boshqa resurslardan foydalanishga ta'sir qiladi. Ushbu faoliyatni to'g'ri tartibga solmasdan, tez rivojlanayotgan shaharlar jiddiy ekologik muammolarga duch keladi. Shaharlar sonining o'sishi va chegaralarining kengayishi mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga va shaharsozlik masalalariga ko'proq e'tibor qaratish zaruratini tug'diradi. Ushbu murakkab o'zaro munosabatlar tizimining asosiy elementi inson omili bo'lib, barqaror rivojlanishning kompleks siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda tegishli e'tiborga olinishi kerak. Bunday siyosat demografik tendensiyalar va omillar, resurslardan foydalanish, tegishli texnologiya va rivojlanishning tarqalishi o'rtasidagi bog'liqliklarning mavjudligini hisobga olishi lozim. Aholi siyosati atrof-muhit va rivojlanish muammolarini hal qilishda aholining o'rnini ham hisobga olish talab etiladi. Barcha darajadagi qaror qabul qiluvchilarning ushbu masala bo'yicha bilim va malakalarini oshirish va ularning milliy, xalqaro siyosatining asosi bo'lishi uchun ularga aniqroq ma'lumot berish, shu bilan birga ularga ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini berish maqsadga muvofiq.

Aholi haqidagi bilimlar va uning rivojlanish qonuniyatlari shundan dalolat beradiki, faqat XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab "aholi" tushunchasi ilmiy iste'molga kiritilgan. Ungacha "odamlar", "yashovchilar" kabi tushunchalardan foydalanilgan. Aholi, mohiyatiga ko'ra, o'zaro farq qiluvchi uchta jihatga ega. Birinchisi, aholining biologik birlik ekanligidir. Ushbu jihatga ko'ra, insonga biologik mavjudot sifatida ko'payish, biologik jamlanma sifatida takror hosil bo'lish xos. Ikkinchi jihatga muvofiq, aholi ijtimoiy-biologik kategoriyadir. Bu jihat bo'yicha aholi ijtimoiy va biologik munosabatlarning o'ziga xos davomchisi hisoblanadi. Nihoyat, uchinchi jihat shu bilan izohlanadiki, aholi ijtimoiy hodisa bo'lib, ijtimoiy aloqalar orqali birlashgan insonlar jamlanmasi sifatida yuzaga chiqadi.

Aholi ko‘plab xususiyat va vazifalarga ega. Ulardan eng asosiylari - ishlab chiqarish, iste’mol va ko‘payish vazifalari bo‘lib, ular turli tarixiy davrlar va jamiyatlarda turlicha o‘lchovga ega. Masalan, ishlab chiqarish vazifasi ijtimoiy mehnat samaradorligi ko‘rsatkichlari yordamida yuzaga chiqsa, iste’mol - aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarilishi sifatida, takror hosil bo‘lish esa reproduktiv yoshdagi ayol tomonidan dunyoga keltirilgan bolalar soni sifatida yuzaga chiqadi. Bulardan tashqari, aholining boshqa xususiyatlari ham mavjud bo‘lib, ular jumlasiga ijtimoiy, migratsiya harakatchanligi kiradi. Mazkur vazifalar aholi faoliyatining turli jihatlarini tavsiflab beradi. Aholi barcha unsur va vazifalari doimiy harakatda bo‘lgan dinamik tizimdir. Aholi harakatining uchta turi farqlanadi: ijtimoiy, tabiiy va migratsion.

Aholining takror hosil bo‘lishi natijasida uning miqdori tug‘ilish va o‘lim, demografik tarkibi esa aholi qatlamlarining bir yoshdan ikkinchi yoshga o‘tishi bilan o‘zgaradi. Demak, aholining takror hosil bo‘lishi nafaqat tug‘ilish va o‘lim oqibatlari asosida avlodlar almashinuviga, ya’ni ayrim kishilarning “kirish”i (immigratsiya) va boshqalarining “chiqish” (emigratsiya)iga, balki “demografik makon”da ularning harakatlanishiga olib keladi.

Tabiiy harakatdan farqli o‘laroq migratsiya – aholining makondagi harakatidir, uning hudud bo‘ylab taqsimlanishidir. Ushbu ma’noda migratsiya ko‘chib o‘tishlar sodir bo‘layotgan ma’lum bir hudud doirasida aholi miqdorining o‘zgarishiga olib kelmaydi, faqatgina ushbu hudud (mamlakat, mintaqa)ning ayrim qismlaridagi aholi tarkibi va miqdori o‘zgaradi, xolos. Tadqiqotlar migratsiya va aholining takror hosil bo‘lishi o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ularning ikkalasiga ham tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’siri xosdir: ijobiy (tug‘ilish, immigratsiya) va salbiy (o‘lim, emigratsiya). Migratsiya va takror hosil bo‘lish jarayonlari - demografik dinamikaning ikki tarkibiy qismidir. Lekin aholining takror hosil bo‘lishi va migratsiyasi o‘rtasida quyidagi tafovutlar mavjud :

➤ bu ikki jarayon aholi harakatining ikki turi hisoblanadi. Takror hosil bo‘lish jarayoni aynan bir insonlar jamlanmasida sodir bo‘ladi va uning uchun

ichki harakat xosdir. Migratsiya jarayonlari esa bundan mustasno, ya'ni migratsiya tashqi hodisa hisoblanadi;

➤ aholining takror hosil bo'lish jarayonida ayrim hodisalar (o'lim, tug'ilish) har bir ishtirokchi uchun bir marta sodir bo'ladi, migratsiyada esa ayrim hodisalar (emigratsiya, immigratsiya) ishtirokchilar uchun ko'p marta takrorlanishi mumkin;

➤ reproduktiv mayl aholining takror hosil bo'lish holatiga bevosita ta'sir qiluvchi ehtiyojlar bilan determinantlashadi. Bu bola orttirish ehtiyoji yoki bolalar qondirishi mumkin bo'lgan ba'zi boshqa ehtiyojlar, o'zini-o'zi asrash ehtiyoji, ya'ni hayotiy ehtiyoj, oila qurish ehtiyojidir. Migratsiyada esa boshqacha, ya'ni ko'chish migratsiya ehtiyojlari bilan emas, balki aholi ayrim qismlarining ijtimoiy-iqtisodiy maqomini o'zgartirish ehtiyojlari bilan asoslanadi. Birinchi holatda ehtiyojlar - demografik maylning ichki maqsadi, uning birlamchi unsuri bo'lsa, ikkinchi holatda - migratsiya boshqa, odatda moddiy ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib yuzaga chiqadi. Aynan shuning uchun oilaning farovonlik darajasi bolalarga bo'lgan ehtiyojga nisbatan qarama-qarshi bog'liqlikda bo'lsa, migratsiyaviy ko'chishlarga nisbatan to'g'ri bog'liqlikda bo'ladi;

➤ takror hosil bo'lish jarayonlari bilan aholining shunday demografik xususiyatlari o'zaro bog'likki, ular inson hayoti davomida o'zgarmay qoladi (jins) yoki vaqt o'tishi bilan o'zgaradi (yosh). Shu bilan birga, migratsiya o'zgaruvchan ijtimoiy xususiyatlar bilan ham o'zaro bog'liq, ularning ayrimlarini migratsiya doimo (turar joy, mehnat sohasi), boshqalarini esa ba'zan (kasb, malaka) o'zgartirib turadi;

➤ migratsiya aholining takror hosil bo'lishidan obyektiv omillarga yetarli darajada kuchli bog'liqligi bilan tubdan ajralib turadi. Migratsiya ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari – ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, urbanizatsiya jadalligi va boshqalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Aholi, uning soni, yosh tarkibi, joylashuvi va nihoyat tabaqalarga bo'linishi haqidagi batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish to'g'risidagi aniq ehtiyoj ijtimoiy munosabatlar tizimidagi keskin burilishlar sodir bo'lish davridan, aholini ijtimoiy

va makondagi joylashuv nuqtai nazaridan tamoman yangi sharoitlariga olib kelgan feodal tabaqalashuv jamiyatidan kapitalistik jamiyatga o'tish davrida, agrar iqtisodiyotdan industrial iqtisodiyotga o'tish davrida boshlandi. XVII-XVIII asrlar migratsiya jarayonlarining rivojlanishida keskin burilish davri bo'ldi, uning asosida mamlakatlararo, qit'alararo migratsiya davlatlarining demografik manbai bo'lib qoldi. Tarixiy rivojlanishning yangi shartlari va u bilan bog'liq holda davlatchilikning rivojlanishida aholining rolini ko'rsatish holatlari N. Makiavelli (1469-1527), J. Boden (1530-1596), D. Botero (1540-1617) asarlarida o'z ifodasini topdi, ular birinchi navbatda, siyosatchilar yoki siyosiy yozuvchilar bo'lishgan. Aholi muammolariga hatto ijtimoiy utopistlar, avvalambor T. Kampanella (1568-1639) ham qiziqish bildirgan.

Aholi haqidagi ma'lumotlarning to'planishi va tahlili siyosiy arifmetika va davlatshunoslik kabi ikkita fan tarmoqlarining rivojlanishi bilan barobar bo'lgan. Birinchisi, yangi davr hosilasi bo'lsa, ikkinchisi boy tarixiy an'alariga ega bo'lgan. Aholi dinamikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish bo'yicha yondashuvlar siyosiy arifmetikachilar hisoblangan V. Petti (1623-1687), J. Graunt (1620-1674) va E. Galley (1656-1742) kabi olimlar asarlarida kuzatiladi. Ularning demografiya fani oldidagi xizmatlari kattadir. Ular keyinchalik "aholining tabiiy harakati" deb nom olgan yangi bilimlar sohasi chegaralarini aniqlab berganlar va miqdoriy (son jihatdan) o'rganish asoslarini yaratganlar. Ular birinchilardan bo'lib "ijtimoiy dalillarni hisoblab chiqish" bo'yicha harakatlarni amalga oshirganlar

Aholi va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sir nazariyasi rivojlanishiga V. Petti beqiyos hissa qo'shgan, u XVII asrning eng yirik nazariyotchi-iqtisodchilaridan biri bo'lgan. U mamlakat aholisini davlatning asosiy boyligi – "inson kapitali", deb hisoblagan. "Mehnat - boylikning otasi, yer - uning onasi", degan mashhur hikmat bevosita U. Pettiga tegishlidir. Shuning uchun olim davlat aholi soni o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi kerakligini uqtirgan .

Aholi dinamikasi muammolari va uning o'sish sur'atlarining o'zgarish sabablarini talqin qilishdagi o'ziga xos yondashuvni E. Galley taklif etgan:

“Insoniyatning ko‘payishi va uning o‘sishi nafaqat inson tabiatida mavjud bo‘lgan ba’zi holatlar, balki uning oilani boqish bo‘yicha vazifa va tashvishlarning istiqboldagi ko‘payishi bo‘yicha nikohga kirish to‘g‘risidagi qarorlarni qabul qilishda ko‘pchilik aholi tomonidan yo‘l qo‘yiladigan ehtiyotkorligiga ham bog‘liqdir”. Bu bilan E. Galley tug‘ilishning chegaralanish sabablarini ko‘rsatib, davlat bolalar tug‘ilishini qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirish zarur, deb hisoblagan.

Aholi statistikasining takomillashmaganligi, ma’lumotlarning fragmentarligi va kamchiliklarining ko‘pligi sababli ushbu sohada matematik usullarning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Masalan, aholini o‘rganishda ehtimollar nazariyasining qo‘llanilishi, asosan o‘lim va umr ko‘rish davomiyligini hisoblash D. Bernulli (1700-1782) va L. Eylerlar tomonidan ishlab chiqilgan.

Aholini tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishga qiziqishning ortishi va nihoyat ma’lumotlarning to‘planishi hamda tahlil qilish usullarining takomillashuvi o‘sha davrlarda demografiyani mustaqil fan sifatida oyoqqa turgan, deb hisoblashga imkon bermasdi. Xuddi shunday fikrni aholi statistikasiga ham nisbatan aytish mumkin. Bu haqida yirik fransuz ma’rifatparvarlari bo‘lgan Sh. Monteskye (1689-1755), F. Volter (1694-1778), J. Russo (1712-1778) larning fikrlarini keltirish mumkin. Ularning asarlarida aholiga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatidagi yondashuvlar ustunlik qiladi, bunga muvofiq davlatning vazifasi aholining ko‘payishi choralarini ko‘rishdan iborat bo‘lishi kerak, jumladan, qonunlar takomillashtirilishi va mehnat sharoitlari yaxshilanishi lozim. J.Russoning fikricha, fuqarolari doimiy ravishda ko‘payib borayotgan hukumat eng yaxshisi, aholisi kamayib va o‘lib borayotgan hukumat – eng yomonidir.

Aholining iqtisodiy maqsadlarga ko‘ra o‘sishini ingliz iqtisodchilari D. Yum (1711-1776) va A. Smitlar (1723-1790) ham ma’qullagan. Ularning fikricha, aholi sonining ko‘p va ishlab chiqarish samaradorligining yuqori bo‘lishi davlat uchun har tomonlama foydalidir. Bu ichki va tashqi siyosat, jumladan, davlat manfaatlari nuqtai nazaridan har qanday davlat jadal rivojlanishining inkor etib bo‘lmaydigan

isboti hisoblanadi. Bu fikrlarga F. Kene (1694-1774) ning qarashlari ham juda yaqin. U jamiyatning rivojlanishi aholi sonining o'sishiga olib keladi va aholi holati, insonlar mehnatidan foydalanish davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim obyektlaridan biri hisoblanadi, deb yozgan.

Demografiya fanining vujudga kelishida buyuk rus qomusshunos olimi M.V. Lomonosov (1711-1765) ning ham o'rni katta. U mamlakat boyligining asosini hech kim yashamaydigan bepoyon hududlar emas, balki aynan aholi tashkil qiladi, deb hisoblagan. XVIII asrda aholini o'rganish bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishilganligiga qaramay, uni hisobga olish ishlari juda sodda, yondashuvlar esa juda muammoli, ya'ni davlat boshqaruvi manfaatlari bo'yicha amalga oshirilgan. Ushbu holat aholi statistikasi fanini ilmlarning mustaqil tarmog'i sifatida ajralib chiqqanligini ta'kidlash imkonini bermas edi.

Aholi soni bilan mavjud resurslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosi aholishunoslik nazariyasiga muhim hissa qo'shgan T.Maltusning (1766-1834) asarlarida o'z ifodasini topgan. Aholi tamoyillari Maltusga ko'ra agar nazoratsiz qolsa aholi soni har avlodda ikki barobar oshadi. Yegulik taqchilligi yuzaga keladi. Chunki aholi har avlodda geometrik o'sar ekan (1-2-4-8-16 va shunday) "tirikchilik" arifmetik hisobda o'sadi (1-2-3-4-5 va shunday). Shunday qilib, quyidagi misolga ko'ra avlod so'ngiga kelib populyatsiyaning 16 ta birligi boqadi ammo yegulik va tirikchilikning faqat 5 birligi mavjud bo'ladi. Shunga qaramay Maltus aytadiki, aholining o'sishi nazoratning ikki usuli bilan tekshiriladi, oldini oluvchi va ijobiy nazorat. U asosiy oldini oluvchi nazoratga "aqliy chegaralash" sifatida tayanadi.

XX asrning boshlarida fransuz demograf olimi A. Landri (1874-1956) aholi sonining o'sishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga bog'liqligini asoslashga harakat qilib, demografik inqilob konsepsiyasini ishlab chiqdi. Keyinchalik u aholining takror hosil qilinish turlari o'zgarishi sabablarini ochib beradigan demografik o'tish konsepsiyasi nomini oldi.

Aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish 1000 yil (500-1500 yillar) davomida ko'paymagan va ana shu davr mobaynida aholining yillik o'rtacha ko'payishi sur'ati 0,1 foizni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlarning birmuncha o'sishi keyingi uch yuz yil (1820 yilgacha) davrida aniqlangan, lekin bunda o'sish sur'ati juda past bo'lgan. Aholi o'sishida keskin sakrash zamonaviy kapitalizm bosqichida (1820-1980 yillarda) sodir bo'lgan. Bunda aholi jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish o'sishi sur'atlari yiliga 1,6 foizni tashkil etgani holda, aholi soni yiliga taxminan 1,0 foizga ko'paygan. Yuzaki qaraganda, aholisining soni ko'p bo'lgan va ulkan bo'sh ishchi kuchi zaxirasiga ega davlatlar iqtisodiy o'sishda yuqori sur'atlarga erishish imkoniyatlariga ega. Amalda esa aholisi ko'p bo'lgan aksariyat mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari juda past, aksariyat hollarda aholining tabiiy o'sish sur'atlaridan kam. Gap shundaki, iqtisodiy o'sish faqat tabiiy - yer, ishlab chiqarish vositalari, kapitalgagina emas, balki bu resurslardan ham muhimrog'i - insonga, aniqrogi inson kapitali - bilimi, malakasi, tajribasi, salomatligi va boshqalarga bog'liq.

Jumladan, T.Shulsning fikricha, insonga investitsiya kiritishning asosiy natijalari kishilarda mehnat qobiliyatining ortishi, ularning jamiyatda samarali bunyodkorlik faoliyatini amalga oshirishi, salomat bo'lishi va boshqalarda o'z ifodasini topadi. U inson kapitali jamlanish va takror hosil qilinishga qodir, deb hisoblagan. Olimning fikricha, jamiyatda ishlab chiqarilayotgan jamlanma mahsulot umumiy hajmining to'rtdan uch qismi inson kapitalini to'plashga sarflanmoqda. Holbuki, XX asrdagi takror hosil qilishga doir ko'pchilik nazariyalarda bu ko'rsatkich to'rtdan bir qismni tashkil etadi, deb ko'rsatilar edi.

Aholi ko'payishi, tarkibi va rivojlanishi bir tomondan jamiyat taraqqiyotiga, undagi iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakat taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Demografik jarayonlar u yoki, bu davlatlarda ro'y beradigan turli o'zgarishlarni ma'lum jihatdan osonlashtiradi yoki qiyinlashtiradi .

Aholi soni o'sishi oziq-ovqat yetishmasligi, narxi ko'tarilib ketishi, qishloq xo'jaligida foydalanadigan yer maydonining qisqarishi kabi qator muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Amerikalik professor Revell – oziq-ovqat muammosi faqat qishloq xo'jaligi tarmog'iga bog'liq bo'lib, agarda, qishloq xo'jaligi tarmog'ini yer yuzining hamma qismida talab darajasida yo'lga qo'yilib, e'tibor berilganda 100 milliard odamni boqishga yetadigan oziq-ovqat mahsuloti yaratish mumkinligini ta'kidlaydi. Agrobiolog Veggoner esa, mavjud qishloq xo'jaligi ekin maydoni, iqlim, suv, quyosh energiyasidan samarali to'g'ri foydalanilsa, atrof-muhitga zarar yetkazmasdan 80 milliard kishining qornini to'yg'azish imkoniyati borligini ta'kidlaydi.

1781 yilda fransuz yozuvchisi Abbat Giyom Reynal o'zining Amerika revolyutsiyasiga bag'ishlangan asarida “Amerika Qo'shma Shtatlaridagi bugungi ahvoldan kelib chiqib qachondir, bu joy 10 million aholini boqa olsa juda katta ish bo'lar edi. Chunki, mamlakat o'zini-o'zi zo'rg'a ta'minlayotgan hozirgi paytda, shuncha aholini faqat tabiiy resurslarga tayangan ravishda, iqtisodiyotni qattiq nazoratga olish orqali boqish mumkin, aks holda zarur mahsulotlar bilan ta'minlay olmasligini”, ta'kidlaydi. Muallif ushbu so'zlarni yozganda Amerika aholisi 3 million kishini ham tashkil etmagan edi. AQSH aholisi bugungi kunda 323,9 mln kishi va bu, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishiga xalaqit berayotgani yo'q.

Umuman olganda aholi va uning o'sishi bo'yicha olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bir qancha nazariyalarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

- Maltus nazariyasi va uning tarafdorlari bo'lib, asosiy xususiyat aholi o'sishi oziq-ovqat va boshqa resurslarning mavjudligi bilan cheklanib, qashshoqlik va ochlikka olib kelishi bilan belgilanadi;

- boshqa bir guruh olimlari demografik o'tish nazariyasi tarafdorlari bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida tug'ilish va o'lim darajasining o'zgarishini tavsiflaydi. Bunda birinchi bosqichda tug'ilish va o'lim darajasi yuqori

bo'lsa, ikkinchi bosqichda tug'ilish darajasi yuqori bo'lib qoladi, o'lim darajasi pasayadi, uchinchi bosqichda tug'ilish darajasi o'lim darajasiga tenglashadi;

- aholi sonining optimal soni nazariyasi tarafdorlari esa optimal aholi soni resurslar va ishlab chiqarish texnologiyalarining mavjudligiga bog'liqligini ta'kidlashadi.

Umuman olganda, aholi sonining ko'payishi nazariyalari aholining haddan tashqari ko'payishining sabablari va oqibatlarini tushunishga yordam beradi va aholi o'sishini nazorat qilish strategiyasini ishlab chiqadi.

Aholining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar tug'ilish, o'lim va migratsiya dinamikasini tahlil qilishni, resurslar va ishlab chiqarish texnologiyalarining mavjudligini baholashni, shuningdek, aholining haddan tashqari ko'payishining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Masalan, demografik o'tish davri bo'yicha tadqiqotlar tug'ilish va o'lim darajasidagi o'zgarishlar aholi soni va tuzilishiga, shuningdek, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini tushunish imkonini beradi. Resurslar va ishlab chiqarish texnologiyalarining mavjudligi bo'yicha tadqiqotlar muayyan mamlakat yoki mintaqa uchun optimal aholi sonini aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo'riyeva M., Tojiyeva Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Toshkent -2011.
2. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari. Toshkent., 2001 y.
3. Qayumov A. va boshqalar. Aholi geografiyasi va demografiyasi. Toshkent-2011.
4. Tojiyeva Z. N. Aholi geografiyasi. Darslik. Toshkent: "Noshir", 2019.
5. Kadirov M.A. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan. Darslik. – Toshkent, 2019.
6. Солиев А.С. Ўзбекистон географияси. Дарслик. – Тошкент, 2014.
7. Солиев А. С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт.-Т.: Камалак, 2013.
8. Медков Ф. Основы демографии. Учебник. –М., 2004.
9. Муродова Д.С. Экономико-географическое особенности населения Кашкадарьинской области // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. № 2 (81), 2021. – С. 55-58
10. Murodova D.S. Economic geographical factors affecting the formation of city addresses // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume 12, India, 2022. – P. 29-34.

11. Murodova D.S. Main Characteristics Of The Demographic Situation And Economic And Social Development Of Kashkadarya Region // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. – P. 32-35.